

MAKTABLARDAGI BULLING HOLATI VA UNING SALBIY OQIBATLARI

*NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA
QARASHLI 20- SONLI MAKTAB PSIXOLOGI
AMINJONOVA NAZOKAT FAXRIDDIN QIZI*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda uchrayotgan bulling holati, uning kelib chiqish sabablari hamda o'quvchilar ruhiyati va ta'lim jarayoniga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, bullingning oldini olishda pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamkorligi muhim omil ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bulling, maktab zo'ravonligi, psixologik bosim.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida uchrayotgan dolzarb muammolardan biri bu bulling holatlaridir. Bulling — bir o'quvchi yoki guruh tomonidan boshqa bir o'quvchiga nisbatan muntazam ravishda jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy bosim o'tkazilishidir. Bu holat nafaqat bolaning ruhiy holatiga, balki uning ta'lim olishi, jamiyatga moslashuvi va kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktab muhiti bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhit yaratish va bullingning oldini olish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Bulling tushunchasi va uning turlari

Bulling — bu ma'lum bir shaxsga nisbatan takrorlanuvchi tahqirlash, kamsitish yoki zo'ravonlik harakatlaridir.

U quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

-Jismoniy bulling urish, turtish, buyumlarini tortib olish, jismoniy zarar yetkazish.

-Psixologik bulling. masxara qilish, haqoratlash, qo'rqitish, tahdid qilish.

-Ijtimoiy bulling. jamoadan chetlashtirish, yolg'on gap tarqatish, do'stlari bilan munosabatlarini buzish.

-Kiberbulling. ijtimoiy tarmoqlarda haqorat qilish, ruxsatsiz foto yoki videolar tarqatish, internet orqali tahdid qilish. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida kiberbulling holatlari ortib bormoqda.

Bullingning kelib chiqish sabablari. Bullingning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo'lishi mumkin:

-oiladagi nosog'lom muhit;

- e'tibor yetishmasligi;
- agressiv media ta'siri;
- noto'g'ri tarbiya;
- o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik;
- pedagogik nazoratning sustligi.

Ba'zi bolalar o'zidagi ichki muammolar yoki stressni boshqalarga nisbatan tajovuz orqali namoyon qiladilar.

Buillingning salbiy oqibatlar:

Ruhiy salomatlikka ta'siri. Buillingga uchragan bolalarda: qo'rquv, xavotir, tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik, yolg'izlik hissi kuchayadi. Ba'zi hollarda o'quvchi maktabga borishni istamay qolishi yoki ijtimoiy faollikdan chekinishi mumkin.

Ta'lim sifatiga ta'siri. Builling o'quvchining darslarga qiziqishini pasaytiradi, diqqatni jamlashni qiyinlashtiradi va o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy rivojlanishga ta'siri. Doimiy bosim ostida yashagan bola tengdoshlari bilan sog'lom munosabat qurishda qiynaladi. Kelajakda bu kommunikativ muammolar va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Tajovuzkorlikning kuchayishi. Builling qiluvchi bolalarda ham salbiy xulq shakllanib boradi. Agar vaqtida choralari ko'rilmasa, ularda agressivlik doimiy odatga aylanishi mumkin. Buillingning oldini olish yo'llari

Maktabda sog'lom muhit yaratish. O'quvchilar o'rtasida hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantirish muhimdir.. Psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish
Maktab psixologi o'quvchilar bilan individual va guruhli ishlashi, muammolarni erta aniqlashi zarur. Ota-onalar bilan hamkorlik. Farzandning ruhiy holatiga e'tibor berish, uning muammolarini tinglash va qo'llab-quvvatlash kerak.

Tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish

Buillingga qarshi treninglar, davra suhbatlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish samarali hisoblanadi. Kiberxavfsizlik bo'yicha tushuntirish ishlari
O'quvchilarga internetdan xavfsiz foydalanish qoidalarini o'rgatish zarur.

Xulosa

Maktablardagi builling holati bugungi kunda jiddiy pedagogik va psixologik muammolardan biri hisoblanadi. U o'quvchilarning ruhiy salomatligi, ta'lim sifati va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Buillingning oldini olish uchun maktab, oila va jamiyat hamkorlikda ishlashi, o'quvchilar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi lozim. Sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lgan ta'lim maskanida barkamol va ijtimoiy faol yoshlar tarbiyalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Kasbga yo‘llash o‘quv qo‘llanma” ning 165-181betlari.
2. K.Jo‘raboev. O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha psixologik pedagogik o‘yinlar, mashqlar va metodikalar. T.,2017 y
3. S.X. Jaliljva va b. Kasb psixologiyasi o‘.q. Toshkent-2010
4. G‘oziyev E. “Umumiy psixologiya”. — Toshkent, 2020.